

## IBN MU'TI VA UNING “ALFIYA” ASARI - NAZMIY ASARLAR YOZISH UCHUN ISHTIYOQ CHASHMASIDIR

**Yuldashev Baxodir Kadirdjanovich**

“Yangi asr” universiteti, Mumtoz sharq filologiyasi kafedrasи o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab tilshinosligida qisqa grammatik risolalarni nazmiy uslubda yozish va bunga undovchi hamda, ilhom beruvchi dastlabki ustozlar haqida qisqa ta'rif berilgandir. Ta'riflar nazmiy qisqa grammatik asarlar tarixini uztozlar asari va ualrning shogirdlarga ta'siri misollar bilan keltirilgan. Bu esa haqiqiy ilhom chashmasi sifatida ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** Grammatika, Alfiya, port, lug'atshunos, nahv, rajaz, bahriy usul, hijriy.

Arab nahvchiligi ilmida bizning kunimizga qadar ko'plab olimlar, nahvchi - tilshunoslar va lug'atshunoslar o'tishgan. Bu ilmlaring bizgacha yetib kelishida o'zlarining bor ilmlari va shijoatlarini ishga solib ko'plab asarlar yozib qoldirganlar. Nahv ilmining dastlabki yillarda kitobot - yozish ilmi unchalik rivoj topmagan bo'lsa, keyinchalik orttirilgan bilimlar, malaka va ko'nikmalarni avlodlarga yetkazish masalasi birinchi o'ringa ko'tariladi. Buning natijasida kitobot ishlari rivojlanadi va xattoki “san'at” darajasiga yetadi. Buning natijasi o'laroq bizgacha Yaratganning irodasi bilan ko'pgina olimlarning nazmiy va nasriy uslubdagi ilmiy asarlari yetib keladi. shunday asarlardan biri Ibn Mu'tining “Alfiya” nomli 1024 baytdan iborat “minglik” risolasidir.

Ushbu risola haqida so'zlashdan oldin alloma Ibn Mu'ti o'zi kim? - degan savolga javob bersak. Yahyo ibn al-Mu'ti ibn Abdi an-Nur az-Zavaviy al-Maq'ribiy an-Nahviy - tahalluslari “Zayn ad-Din” bo'lib, ko'proq bu alloma Ibn al-Mu'ti nomi bilan mashhur bo'lganlar. Milodiy 1168 -yilda (hijriy 564-yil) Jazoirdagi Bar-bar qabilalaridan bo'lmish “Zavava” qabilasida dunyoga kelganlar. Bolaliklari o'rta Yer dengizi sohilidagi Bijaya shaharchasida o'tgan. Hozirgi vaqtida bu Jazoirning portlaridan biri sanaladi.

Keyinchalik dastlabki ilmlarni olganlaridan so'ng ilm talabida boshqa ko'plab yurtlarga boradilar. At-Taj al-Kindiy, Ibn Asokir, Abu Muso Jazuliy kabi o'z zamonasining mashhur allomalaridan ilmlarni o'rganadilar. “Ibn Mu'ti Ibn Asokirdan dars tinglaganlar, Damashqda bir muddat yashaganlar va buyuk podshoh Ayyubiyning taklifiga binoan Misrga kelganlar”.<sup>1</sup>

Tarixchi va tarjimon olimlar uning bir qancha tilshunoslik va lug'atshunoslik ilmlariga oid kitoblarini sanab o'tadilar. Masalan:

1) (Ad-Durra al-Alfiya fi ilm al-arabiyya) الدرة الalfية في علم العربية -

2) (Al-Musallas fi al-lig'a) المثلث في اللغة -

3) (Al-Uqud va al-qovaniin fi al-nahv) العقود و القراءتين في النحو -

4) (Al-Usul al-xomsun fi al-nahv) الفصول الخمسون في النحو -

5) (Divanu xotob) ديوان خطب -

6) (Urjuza fi al-qiroati al-sab'I) أرجوزة في القراءات السبع -

7) (Nazm alfaz al-jamharo) نظم ألفاظ الجمهرة -

<sup>1</sup> M.Nosirova., “Tilshunoslik bilimlari tarixi”, T.:2019. “Navro‘z”. 167-bet.

8- (البديع في صنعة الشعر) Al-Badi' fi son'ati al-shi'ri<sup>2</sup>

Ibn Mu'ti faoliyati davomida shunay ilm cho'qqilarini zabt etdiki, xatto arab nahvi ilmida o'z davrining eng ko'zga ko'ringan zabardast ulamolaridan biri bo'ldi. Javhariyning "Al-Sihah" asariga yozgan sharhi unga mashhurlikni olib keldi. Uning bu darajada yetuk olim bo'lishiga asosiy ta'sirlardan biri hayotining dastlabki yillarida o'z yurtida ta'lim olishi bo'ldi. O'sha davrlarda shumoliy va g'arbiy Afrika hududlari va piriney yarimorilining janubiy qismlarida Muvahhidinlar davlati hukmronlik qilar edi. Bu davlat o'z vaqtida ilm va fanga juda katta e'tibor berganlardan sanalar edi. Shuning uchun ham bu davrda Mag'ribda Ibn Mu'ti, Ibn Xuruf, Ibn A'sfur, Ibn Molik kabi yirik ulamolar yetishib chiqqani so'zimizga dalil bo'la oladi. Ilmiy faoliyati davomida u Misrga shaxsan Salohiddin Ayyubiyning taklifiga binoan keladi hamda, bu yerda ko'plab ilmlar o'rganish bilan birga ilm toliblariga ko'p yillar davomida o'z bilimlarini ham o'rgatib keladi. U Qohirada umriing oxirigacha qoladi va vafotidan so'ng shu yerga dafn etiladi.

Ibn Mu'tining asaralri rasida unga mashhurlik keltirgan asardan yana biri bu "Ad-Durra al-Alfiya fi ilm al-arobiyya" asari bo'lib, u qisqachasiga "Alfiya" nomi bilan mashhurdir. Bu "A'fiya" minglik baytlar to'plami yozish an'nasini boshlab bergan birinchi risola hisoblanadi. Bunday risolalarni yozishdan maqsad shuki, tolibi ilmlarga arab nahvi qoidalalarini tilga yengil, hifzga oson va qalbga to'g'ri kirib keladigan jumlalar yordamida tushuntirishdir. Allomaning o'zi ham o'z asarida bu haqida shunday degan:

هذا تمام الدرة الآلية<sup>3</sup>.....

(Bu (tom ma'nodagi) haqiqiy mingta durdnonadir)

Haqiqatan ham, ushbu asarda olmosga teng baytlar arab nahv qoidalairini ilm talabidagilarga tushuntirib beradi. Bu asar yozlishi o'zidan keyingilar uchun "ming bayt" usulidagi durdona asarlar dunyoga kelishini ta'minlab berdi. Ibn Molik, Al-Asari, Al-Suyuti kabi allomalarning asaralri shular jumlasidandir. Ibn Molikning "Alfiya"sida keltirilgan ushbu baytlar so'zimiz isbotidir:

فانّةُ الْفَيَّةَ اِبْنُ مُعْطَى.....

(Ibn Mu'tining alfiyasiga tasanno)

و هُوَ بِسَبَقٍ حَائِرٌ تَفْضِيلًا مُسْتَوْجِبٌ شَائِيَ الْجَمِيلِ<sup>4</sup>

(Talabimiz (unga) faqat go'zal maqtovdir) (U birinchilardan fazl egasidir)

Ibn Mu'ti o'z "Alfiya"sinı yozishda ikki usuldan foydalanadi: rajaz va yengil bahriy usullardir. Aynan mana shu bahr usullari uning baytlarini "durdona"ga aylantirgan usul hisoblanadi.

Bu asarga o'z vaqtida ko'plab olimlar tomonidan sharhlar ham yozilgan bo'lib, Ahmad ibn Husayn ibn Ahmad al-Nahviy al-Darir shular jumlasidandir. Bunday sharh yozgan allomalar ro'yxatida Al-Darirdan so'ng yana 11 nafar alloma bor. Hijriy sakkizinchasi asr yarmi va to'qqizinchasi asr boshlarigacha ushbu asarga sharhlar va xoshilyalar juda muhim jihatlarini o'rganish maqsadida kitobot qilinib kelgan.

<sup>2</sup> Ibn Mu'ti, (الدرة الآلية في علم العربية) Ad-Durra al-Alfiya fi ilm al-arobiyya, Dar al-fadila, Qohira, 2010 yil.

<sup>3</sup> Ibn Mu'ti, (الدرة الآلية في علم العربية) Ad-Durra al-Alfiya fi ilm al-arobiyya, Dar al-fadila, Qohira, 2010 yil.

<sup>4</sup> Ibn Molik, "Alfiya" asari.